

ARAB DAVLATLARIDA DIALEKTIZM VA SHEVALARNING HUDUDIIY FARQLANISHI, LINGVISTIK XILMA-XILLIK VA QIYOSIIY TAHLILI

**РЕГИОНАЛЬНАЯ ДИФФЕНЦИАЦИЯ ДИАЛЕКТОВ И ГОВОРОВ
ЯЗЫКОВОЕ РАЗНООБРАЗИЕ В АРАБСКИХ СТРАНАХ**

**REGIONAL DIFFERENTIATION OF DIALECTS, LINGUISTIC
DIVERSITY IN ARABIC COUNTRIES**

Safarova Sabrina Ulug'bek qizi
O'zDTU Tarjimonlik fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab davlatlarida shevalar va dialektlarning hududiy farqlanishi, so'zlashuvdagi o'rni haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, so'zlar qo'llanilishidagi farqlar ochib beriladi va kundalik muloqotda foydalaniladigan qisqacha so'zlashuv adabiy arab tilidagi va Misr shevasi qiyosiy taqqoslanadi. Maqola arab tilidagi dialektal xilma-xillikning kundalik nutq darajasiga qanday namoyon bo'lishini ochib beradi va mintaqaviy til xosliklarini tushunish ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Arab tili, lingvistik xilma-xillik, mintaqaviy farq, dialektizm, sheva, og'zaki nutq, adabiy til, hududiy leksika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются территориальные различия диалектов и говоров в арабских странах а также их роль в устной речи. Кроме того раскрываются различия употреблении слов и проводится краткий сравнительный анализ повседневного общения на литературном арабском языке и египетском диалекте. В селом статья показывает как диалектное разнообразие проявляется на уровне повседневной речи и подчеркивает научную значимость понимания языковых особенностей различных регионов.

Ключевые слова: Арабский язык, лингвистическое разнообразие, региональная различие, диалектизм, говар, устная речь, литенатурный язык, региональная лексика.

Abstract. In this article, the regional variation of dialects and vernuculars in a Arabic countries and their role in spoken communication are discussed. Additionally, differences in word usage are highlighted, and brief conversational comparison between Modern Standart Arabic and the Egyptian dialect is provided. Overall, the article reveals how dialectal diversity manifests in everyday speech and emphasizes the scientific significance of understanding the unique features of regional languages.

Keywords: Arabic language, linguistic diversity, regional difference, dialectism, vernacular, oral speech, literary language, regional lexicion.

Kirish. Arab tili VII asrda Islom paydo bo'lishi bilan arab tili "Qur'oni Karim"ning yozilishi orqali adabiy va rasmiy til sifatida mustahkamlandi. Vaqt o'tgan sari hududiy farqlanish sababli tilda shevalar ya'ni dialektlar paydo bo'ldi. Arab tili eng boy lug'at tarkibiga ega bo'lib, uning muhim jihatlaridan biri dialektizm va shevalardir. "Dialektizm" so'zi grekcha "nutq", "so'zlashuv uslubi", "mahalliy til" degan ma'noni anglatadi. Shu bilan birga, dialektlar tilning rivojlanish jarayonlarini va

uni qanday shakllanganligini ko'rsatadi. Ushbu maqolada arab tilining dialektlari va ularning lingvistik farqlari ularning mintaqaviy va madaniy ta'siri tahlil qilinadi. [1: 2]

Asosiy qism:

1. Arab tilidagi dialektizmlarning hududiy farqlanishi.

Arab dunyosida dialektlar va shevalar hududiy farqlanish bo'yicha xilma-xildir. Bu farqlanishlar tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillarga bog'liq bo'lib, har bir mintaqaning o'ziga xos talaffuz, so'z boyligi va grammatik tuzilishini yuzaga keltiradi. Arab davlatlari hisoblangan Misr, Suriya, Marokash, Iroq hududida o'zbek tiliga tarjima qilinganda, Ahvolingiz qanday?" jumlasini farqlarini ko'rib chiqamiz.

Avvalo adabiy arab tilida: كَيْفَ هَلُوكَ (kayfa haluka)

Misrda: إِزَّيْكَ (izayyak)

Suriyada: كَيْفَكَ (kayfak)

Marokashda: كَيْفَاش دَايِر (kiyafoshroyri)

Iroqda: شَلُونَكَ (shalunak)

Ko'rib turganimizdek, yagona arab tili bo'lsada, bir qancha shevalar paydo bo'lgan. Shevalar, albatta, tildagi rang-baranglik va jozibadorlikni oshirishga hissa qo'shadi.

2. Arab tilidagi dialektlarning so'zlashuvdagi o'rnini. Arab tilida adabiy til bo'lsada, dialekt va shevalarning o'rnini beqiyosdir. Negaki, shevalarning mavjudligi ham qaysidir ma'noda foydadan holi emas. Asosiy jihatlari sifatida quyidagilarni olishimiz mumkin.

– Og'zaki nutqning vositasi:

Dialektlar kundalik suhbatlarda ishlatiladi va odamlar orasida muloqotni soddalashtiradi. Masalan, Misr shevasi arab dunyosida eng ko'p tushuniladigan dialect bo'lib, seriallar va kinolar orqali keng tarqalgan. [2: 4]

– Hududiy identifikatsiya

Talaffuz, leksika va Grammatik jihatdan tuzilishi shaxsning qaysi mintaqadan ekanligini aniqlash imkonini beradi.

3. Arab tilida so'zlar qo'llanilishidagi farqlar:

Arab tilida so'zlardan foydalanish hududiy farqlanishlar, dialektlar va shevalar bilan o'ziga xos xususiyatga ega. Bu farqlar nafaqat talaffuz va grammatik tuzilishda, balki leksikada ham seziladi.

– Talaffuz va fonetik farq:

Misr shevasida ق (qof) tovushi ko'pincha g bo'lib aytiladi: qalb– galb

Mashriq shevasida esa (q)tovushi adabiy tilga anchagina yaqin.

– Grammatik tuzilish

Fus'ha: fe'l va shaxs ko'rsatkichlari aniq bo'ladi:

لم افهمك (Men tushunmadim)

Misr ammiya: Grammatik tuzilish soddalashtirilgan

ما فهمتش (Men tushunmadim)

– Leksik farq:

Misrda: اوتوبيس (otobis)– avtobus

Mag'ribda: كاريوس (karius)– avtobus

Shu tarzda bir xil ma'noga ega so'zlar turli hududlarda turlicha nomlanishi ham mumkin. [3: 256]

4. Adabiy arab tili va Misr shevasining taqqoslanishi.

Arab tilida ko'plab dialektlar bo'lgani bilan Misr shevasi adabiy tilga yaqin til hisoblanadi. Kunlik so'zlashuvda foydalaniladigan iboralarni adabiy til va Misr shevasida taqqoslab chiqamiz.

Adabiy arab tilida: من فضاء كيف اذهب الى التحرير

Misr shevasida: لو سمحت اروح التحرير ازاي

O'zbek tilida: Iltimos qanday qilib borsam bo'ladi?

Adabiy arab tilida: تستقل حافلة اوسيارة اجرة

Misr shevasida: تركب اتوبيس او تاخذ تاكس

O'zbek tilida: Avtobus yoki taksiga boring.

Adabiy arab tilida: اين موقف الحافلات

Misr shevasida: موقف الباصات فيين

O'zbek tilida: Avtobus bekati qayerda?

Adabiy arab tilida: كم تدفع لسيارة اجرة

Misr shevasida: هتد ياو كام

O'zbek tilida: Taksi uchun qancha to'laysiz?

Adabiy arab tilida: كم دقيقة تستغرق الطريق

Misr shevasida: اظري بيأخذ اد ايه

O'zbek tilida : Sayohat necha daqiqa davom etadi.

Adabiy arab tilida: شكرا جزيل

Misr shevasida: تسلم يا باشا

O'zbek tilida: Katta rahmat.

Ko'rib turganimizdek, adabiy arab tili va Misr shevasida tafovutlar talaygina. Bu tilning rang-barangligining yaqqol isbotidir. Shu sababli arab davlatlaridan bir davlat yoki bir hudud ikkinchi bir hududda yashaydigan arablar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga uchraydi, dialektlarning turfa xilligi natijasida yuzaga keladigan ba'zi bir tushunmovchiliklarga ham duch kelish mumkin. Shu sababli, arab adabiy tili fus'hani bilish va o'rganish tavsiya etiladi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arab tilida dialektizm va shevalar tilning ajralmas qismiga aylangan. Chunki shevalar hududiy farqlanishlar, leksik va fonetik o'ziga xosliklar orqali lingvistik xilma-xillikni aks ettiradi. Ular kundalik muloqotda muhim rol o'ynab, shaxslar orasidagi osonlikcha tushunishni ta'minlaydi va hududiy identifikatsiya imkonini beradi. Maqolada arab davlatlaridagi hududiy farqlanishlar adabiy arab tili (fusha) va Misr shevasidagi kundalik so'zlashuv qiyosiy taqqoslandi va arab davlatlari orasidagi talaffuz, grammatik va leksik xususiyatlar tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshmirzayeva Nilufar. Sheva dialekt va lahjalarning xususiyatlari, ularni o'rganish metodlari. [1: 2]

2. Maksumova Inoyatxatxon. Arab tili dialektlari: Lingvistik xilma-xillik. [2:4]

3. I. Yo'ldoshev, Tilshunoslik asoslari , , Zamin nashriyoti" 2019-yil. [3: 256]